

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TURIZM QO‘MITASI**

“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

**“Ipak yo‘li” turizm va madaniy
meros xalqaro universiteti**

**Ma‘muriy masalalar bo‘yicha
birinchi prorektori**

D.A Nasimov



31-oktabr 2025-yil.

**08.00.05 – “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi
bo‘yicha PhD tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka
kiruvchilar uchun imtihon**

DASTURI

SAMARQAND-2025

KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, unga bo'lgan ehtiyoj muttasil ortib bormoqda. Bu holat, avvalo, obyektiv omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, aholining real daromadlari o'sishi va turmush darajasi yaxshilanishi natijasida aholining xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabi diversifikatsiyalanib, yangi tur va shakldagi xizmatlarni talab qilmoqda. Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyalashuvi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi xizmatlar infratuzilmasining ham mos ravishda rivojlanishini taqozo etadi. Xizmat ko'rsatish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan sharoitda ishlab chiqarish samaradorligini barqaror yuqori darajada ta'minlash qiyinlashadi. Shu boisdan xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning ustuvor rivojlantirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazkur bosqichida xizmat ko'rsatish va servis sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat, avvalo, xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi izchil o'sib borayotgani bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, sohani rivojlantirish bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham yetarlicha. Birinchidan, xizmat ko'rsatish subyektlarining bozor munosabatlariga asoslangan yangi xo'jalik yuritish sharoitlariga moslashuv mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etiladi. Ikkinchidan, sohani hududiy va tarmoqlararo nuqtayi nazardan kompleks rivojlantirishga doir ayrim muammolar hanuzgacha o'zining to'liq yechimini topmagan. Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning jadallashuvi, aholining iste'mol madaniyati va ehtiyojlarining o'zgarishi xizmatlarning yangi turlarini joriy etishni taqozo qilmoqda.

Mazkur omillar xizmat ko'rsatish sohasini chuqur ilmiy tadqiq etish, uning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, bu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy o'quv adabiyotlari va metodik ta'minotni yaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda. 08.00.05- Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligining vazifasi xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy mohiyati, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni, xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining maqsadlari, xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik, xizmat ko'rsatishda korxona va tashkilotlarining asosiy fondlari, aylanma mablag'lari, xizmat ko'rsatish korxonalarida marketing xizmatlarini rejalashtirish, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash, xizmat ko'rsatish sohasida investitsiya jarayonlari, ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, xizmat ko'rsatish sohasi korxona vatashkilotlarining daromadlari va rentabellik darajasi kabi masalalarni o'rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, xizmat ko'rsatishdagi jarayonlarga uslubiy yondashuv xamda ilmiy xamda amaliy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Bunda, ilg'or raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni oshirish va ko'nikma xosil qilishdan iboratdir.

1-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTI" FANINING PREDMETI VA METODI

Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti tushunchasi va metodlari. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni. Servis sohasidagi islohotlar. Servisni rivojlanish ko'rsatkichlari. Servis sohasining tarmoq tarkibi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarning tafsiloti. Servis sohasining infratuzilmasi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. "Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti" fanining o'rganish usullari. Tizimli tahlil usulida xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyotini o'rganish tamoyillari. Xizmat ko'rsatish shakllari.

2-MAVZU. TURIZM BOZORI VA XIZMATLARI TUSHUNCHASI, ULARNING XUSUSIYATLARI

Turizm bozori tushunchasi va uning vazifalari. Turizm bozor tarkibi. Bozor infratuzilmasi. Turoperator turizm bozori qatnashchisi sifatida. Turizm bozori iste'molchilari. Xizmat darajalari. Xizmatlar paketi. Xizmatlar dasturi. Xizmatlarni yetkazib beruvchilar. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda xizmat turlarini takomillashtirish. Xizmatlar bozorida elektron biznesning mohiyati va ahamiyati. Turistik xizmatlar bozorida yo'nalishlarni rivojlantirish va rivojlantirish strategiyasi. Turistik mahsulotni ilgari surish usullari. Ekoturizmning tushunchasi va turlari. Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi biznesning ijtimoiy mas'uliyatining iqtisodiy asoslari. Rekreatsiya va sayyohlik sohasida bozor vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish. Xalqaro va ichki turistik bozorlar va ularning alohida segmentlarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarning hozirgi holati va prognozi.

3-MAVZU. SERVIS XIZMATLARIGA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida narx yaratish siyosati. Turistik mahsulot narxining tarkibiy tuzilishi. Turistik faoliyat harajatlari va daromadlari. Turizmda narx belgilash usullari. Imkoniy narxni belgilovchi holatlar. Turistik marshrutning bahosini xizmatlar ko'rsatish narxlari bo'yicha aniqlash.

Mehmonxona xizmatlarini narxlashtirishning mohiyati va hususiyatlari. Mehmonxona xizmatlari narxini belgilash uslublari. Mehmonxonalar faoliyatida narxni yaratish siyosatida jahon tajribasini qo'llash. Mehmonxonalarning narxlashtirish siyosatini takomillashtirish yo'llari.

4-MAVZU. TURIZMDA RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Raqobat tushunchasi. Raqobat turlari. Turizm bozorida raqobat va raqobatbardoshlikning mazmuni va mohiyati. Turizmni rejalashtirishning bosqichlari. Turistik xizmatlar sotishda raqobat strategiyasini ishlab chiqish. Rekreatsiya va sayyohlik sohasining resurs salohiyati va ulardan foydalanish samaradorligi. Animatsiya xizmatlari qatorini kengaytirishga asoslangan maqsadning raqobatbardoshligini oshirish. Turistik firmalarning SWOT-tahlili usuli. Dam olish va turizm sohasida strategik boshqaruv. Turizm korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash. Bozor va davlat regulyatorlarining turistik-rekreatsiya sektori tarmoqlari va majmualarini rivojlantirishga nisbati. Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash.

5-MAVZU. TURISTIK DESTINATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONA XO'JALIGINING O'RNI

Mehmonxona industriyasi. Mehmonxonalar faoliyatining iqtisodiy ahamiyati. Joylashtirish vositalarining hududdagi turistik destinatsiyalar va resurslarni rivojlantirishdagi o'rni va roli. Mehmonxona sanoatida innovatsion boshqaruv. Sanatoriya sohasidagi tashkilotlar faoliyatining rivojlanishining xususiyatlari. Bozor-sayyohlik xizmatlarida mehmonxona zanjirlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini boshqarish. Mehmondo'stlik sanoatida resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish. Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik va o'rta biznesning xususiyatlari.

6-MAVZU. MEHMONXONALARDA SIFATLI XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL QILISH

Sifatning mazmun va mohiyati. Xizmatlar sifati. Texnik va funksional sifat. Xizmat ko'rsatish sifati modeli. Sifatni boshqarish tizimi. Mehmonxonada xizmat ko'rsatish sifatini oshirish dasturini ishlab chiqish. Sifatni boshqaruvchi xizmati.

Mehmonxonalar zanjiri va uning ustunligi. Mehmonxona zanjirlarining mohiyati, ahamiyati, tuzilishi, ustunlik tomonlari. Dunyo yirik mehmonxonalari zanjiri. O'zbekistonda mehmonxona zanjirlarining rivojlanish holati.

Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi xizmatlar samaradorligini va sifatini yaxshilash mexanizmlari. Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi davlat xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va sifati.

7-MAVZU. RESTORAN BIZNESINI TASHKIL ETISH

Turizmدا restoran biznesi haqida umumiy tushuncha. Restoranda xizmat ko'rsatish madaniyati. Restoran xizmatlarini standartlash va sertifikatlash. Dunyoning mashhur restoran zanjirlari. Umumiy ovqatlanish korxonalarining tasnifi. Umumiy ovqatlanish korxonalarini joylashtirish tamoyillari. Restoran oshxonasida ishlatiladigan idish-tovoqlar va anjomlar.

Restoranda taomnoma va uni tuzish tartibi. Restoran faoliyatini samarali tashkil qilish. Restoran faoliyatini tashkil etishda boshqaruv funksiyalarining o'rni. Restoranda strategik boshqaruvdan foydalanish. Restoranda boshqaruv usullari va tamoyillaridan

foydalanish. Mehmonxona restorani faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Mehmonxona restoranning joylashuvi. Restoran dizayni. Restoran xodimlari vazifalari. Metrodotel vazifalari. Ofitsiantga qo'yilgan umumiy talablar. Restorandagi xizmatlar turi. Menyu. Mehmonxona oshxonasi tarkibi. Banket servisi. "Room Service" – nomerda xizmat ko'rsatishni tashkil etish. Restoran biznesida tadbirkorlik faoliyati uchun infratuzilmani qo'llab-quvvatlash.

8-MAVZU. TRANSPORT SERVISI XUSUSIYATLARI

Turizm sohasida transport xizmatlari. Transportda tashish xizmatlarining tasniflanishi. Turizm sohasida transport vositalari. Transport ta'minoti. Transport kompaniyalari. "O'zbekiston Havo yo'llari". "O'zbekiston temir yo'llari". Chiptalarni buyurtma qilish. Tashish marshrutlarini ishlab chiqish. Turizm sohasida transport xizmatlari turlari. Transportda xizmat ko'rsatish va qulaylik darajalari. Turistlarga transportda xizmat ko'rsatish.

9-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARDA INNOVATSIYALAR

Servis korxonalarida innovatsion faoliyatning xususiyatlari. Yangi xizmatlar yaratish tamoyil va modellari. Yangi xizmatlarni yaratish sabablari. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishdagi o'z xususiyatlari va farqli jihatlari. Yangi xizmatlar yaratishning iqtisodiy samarasi. Xizmatlarga talabni oshirish yo'llari. Xizmat ko'rsatishni loyihalash asoslari.

Turistik firmalarda innovatsion faoliyat. Ijtimoiy-dogovrning globallashuvi va uning turizm rivojiga ta'siri. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning turizm industriyasi rivojlanishiga ta'siri. Turizmدا innovatsion jarayonlar asosida turistik xizmat bozorining rivojlanishi. Turistik firmalar innovatsion strategiyasi va bozorda raqobatni ta'minlashi. Turizmда barqaror rivojlanishni innovatsiyalash. Iqtisodiy innovatsiyalar asosida turizm industriyasini rivojlantirish.

Mehmonxona biznesida innovatsion jarayonlarning rivojlanish tarixi. Mehmonxona biznesida texnologik innovatsiyalar. A'lo darajadagi mehmonxonalar. Mehmonxona xo'jaligida ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan innovatsiyalar. Mehmonxona xo'jaligida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash.

10-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARDA FOYDA VA RENTABELLIK

Xizmat ko'rsatish korxonalarda foyda manbai. Xizmat ko'rsatish korxonalarda foydaning turlari, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, tasnifi, aniqlanishi va tahlil qilish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda foyda ko'rsatkichlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda rentabellikning mohiyati. Xizmat ko'rsatish korxonalarda rentabellik ko'rsatkichlari tizimi va ularning tasnifi. Xizmat ko'rsatish korxonalarda rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalar rentabelligining ifodali ko'rsatkichlarning boshqa ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili. Xizmat ko'rsatish korxonasining ishlab chiqarish fondlari rentabelligining tahlili. Xizmat ko'rsatish

korxonalarining barcha aktivlari rentabelligi. Korxonalar o'z mablag'lari rentabelligi tahlili. Xizmat ko'rsatish korxonalarda mahsulot va xizmatlar rentabelligi tahlili.

11-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI XARAJATLARI

Turistik xarajatlarning tarkibiy tuzilishi. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlarini tasniflash. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlarini samaradorligini oshirish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalari moliyaviy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi. Xizmat ko'rsatish korxonalari bankrotlik ehtimolini aniqlash. Turistik xarajatlarni kamaytirish yo'llari.

12-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARDA ISH HAQI VA MEHNAT UNUMDORLIGI

Xizmat ko'rsatish korxonalarda ish haqi turlari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda ish haqi xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi, aniqlanishi va tahlil qilish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda ish haqi xarajatlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarida ish haqi xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda mehnat unumdorligini, uni aniqlash va tahlil qilish yo'llari. Iqtisodiy tahlil natijalarini umumlashtirish va turistik korxonalarda ish haqi xarajatlarini optimallashtirish va mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlar tizimini shakllantirish. Mehmonxona sanoati va sanatoriya sohasida mehnat salohiyatini boshqarish tizimini shakllantirish.

13-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH

Xizmat ko'rsatish sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy asoslari. Xizmat ko'rsatish sohasidagi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari. Xizmat ko'rsatish sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy asoslari. Turizm sohasida axborotni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish. Bozor va davlat regulyatorlarining tarmoqlar va xizmat ko'rsatish sohasi komplekslarini rivojlantirishga nisbati. Xizmat ko'rsatish sohasidagi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari. Xizmat ko'rsatish sohasidagi notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Xizmat ko'rsatish sohasida xayriya faoliyatining iqtisodiy muammolari, homiylik. Aholini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy asoslari. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikchilik.

Bozor va davlat regulyatorlarining turistik-rekreatsioon soha tarmoqlari va majmualarini rivojlantirishga nisbati. Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi korxonalar, tashkilotlar va komplekslarni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Taniyev, G'.Porsayev. Internet marketing SamDU, Darslik 2020y.
2. A.Taniyev Innovatsion iqtisodiyot SamDU, Darslik 2020-yil
3. B. Safarov, G'.Porsayev, D.Usmanova "Raqamli iqtisodiyot asoslari" SamDU, Darslik 2020y.
4. Hickerson. Business and Information Systems 3/ye. N. Y.: John Wiley & Sons, 2000.
5. Laudon K. C., Laudon J. P. Essentials of Management information systems: organization and technology. New Jersey: Prenticely Hall, 2000.
6. Measuring thye Information Sociyety Report. Volume 1. – Geneva: ITU, 2017. – 156 p.
7. Measuring thye Information Sociyety Report. Volume 2: ICT country profiles. – Geneva: ITU, 2017. – 252 p.
8. Thye Global Information Technology Report 2016: Innovating in thye Digital economy / Silja Baller, Soumitra Dutta, Bruno Lanvin. – Geneva: Cornell University, INSEAD, WYeF, 2017. – 463 p.
9. Thye Global Innovation Index 2018: energizing thye World with Innovation / editors: S. Dutta, F. Gurry, B. Lanvin. – Geneva: Cornell University, INSEAD, WIPO, 2018. – 430 p.
10. Ralph M. Stair, George W. Reynolds, Principles of Information Systems. A Material Approach – Ninth edition. -2010 Course Technology, Cyengage Learning.
11. Исаев Г.Н. Информатсионные системы в экономике: Учебник для студентов вузов. – М.: Омега-Л, 20112. – 462 с.
12. Ковалев, М.М. цифровая экономика – шанс для Беларуси / М.М.
13. Ковалев, Г.Г. Головенчик. – Минск: Изд. центр БГУ, 2018. – 328 с.
14. Основы цифровой экономики: учебное пособие / коллектив авторов; под ред. М.И. Столбова, Э.А. Бренделевой. – М.: Научная библиотека, 2018. – 238 с.
15. Стрелетс, И.А. Сетевая экономика и сетевые рынки: учеб. пособие / И.А.Стрелетс. – М: эксмо, 2006. – 208 с.
16. Акбарова З. Товар ва хизматлар бозори статистикаси. Ўқув қўлланма. Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. – 144 б.
17. Абулқосимов Ҳ. ва бош. Эркин иқтисодиёт тамойиллари. Т.: "Akademiya", 2005. -52 б.
18. Абдуллаев Ҳо.А. Бозор иқтисодиёти асослари: 100 савол ва жавоб. - Меҳнат, 1997.
19. Абдуллаев Ё. Макроиқтисодий статистика. 100 савол ва жавоб. Т.Меҳнат, 1998.

20. Будко И.И. Транспортное обслуживание туризма : учебное пособие.
– М.: Издательский центр «МарТ», 2006. – 336 с.
21. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика. Учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т.А. Туренко. – М.: КНОРУС, 2007. – 328 с.
22. Бухгалтерский учет в сфере услуг. Учебник. М.А. Вахрушина, Т.П. Карпова, А.М. Петров и др. – М.: Рид Групп, 2011. – 576 с.
23. Бычков В.П. Предпринимательская деятельность на автомобильном транспорте. – СПб.: Питер, 2004. – 448 с.
24. Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристский бизнес.- Роистов-на-Дону, Феникс, 2009. – 637 с.
25. Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 398 Б.
26. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Услуги, технологии и продукты в туризме.-Т.: Гос. Науч. Изд-во “Ўбек-истон миллий энциклопедияси”, 2009 – 624 с.
27. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Формальности в системе в туризме Республики Узбекистан.-Т.: Гос. Науч. Изд-во “Ўбекистон миллий энциклопедияси”, 2007 – 504 с.
28. Тухлиев И.С., Кудратов Ф.Х., Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик.(Лотин алифбосида) – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.
– 260 бет. – 16,25 б.т. (Шу нашриётда крил алифбосида 2010 йил – 264 б.)

Baholash mezonlari

Kirish sinovi yozma ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi yozilgan savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo'yiladigan talablar
86-100	Q o'yilgan savolga to'liq javob bergan Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan, javobni yoritib bera olgan, amaliy misollar keltirilgan, tasavvurga ega, qisqacha xulosa bergan, fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savolning mohiyatini tushungan, javob yoritilgan qisqa shaklda ammo misollar bilan asoslanmaga. Qisqacha xulosa qilingan.
0-54	Savollarning ayrim elementlarigina yoritilgan yoki umuman javob yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

**Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot
kafedrasi mudiri**



N.A. Raximova